TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI VA UNING RISK DARAJASI

TDIU magistranti **M.R. Xamroliyeva**

Annotatsiya: *Ushbu tezisda tijorat banklari kredit portfelining iqtisodiy mohiyati, uning tarkibi hamda kredit portfeliga ta'sir qiluvchi asosiy risk omillari tahlil qilindi. Shuningdek, kredit riskini baholash usullari, muammoli kreditlarning bank faoliyatiga ta'siri va ushbu risklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida yoritildi. Tadqiqot yakunida tijorat banklarida kredit portfeli sifatini oshirish hamda risklarni samarali boshqarish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.*

Kalit so'zlar: *kredit portfeli, risk, Markaziy bank, kapital, zaxira, tizim.*

imrconf.com

KIRISH

Tijorat banklari kredit portfeli - bu bank tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan jami kreditlar yig'indisi hisoblanadi. Kredit portfeli bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etib, bankning yuqori daromad manbasi hisoblanadi. Kredit portfeli tarkibiga is'temol krediti, ipoteka krediti, tadbirkorlik kreditlari va boshqa bankdagi mavjud kreditlar kiradi. Kredit portfel riski esa kredit oluvchilarning kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytarmasligi oqibatida yuzaga keladi va bu odatda kredit riski deb yuritiladi.

Banklarda kredit portfeli riskiga tashqi omillar va ichki omillar ta'sir qilib, tashqi omillar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- qarz oluvchining moliyaviy holat;
- kredit ta'minotining sifati;
- inflyatsiya darajasi;
- foiz stavkasining o'zgarishi;
- kreditlarning bir sohaga haddan tashqari jamlanishi.

Quyidagi omillar esa banklarda kredit portfelining sifatiga ta'sir qiladigan ichki omillar hisoblanadi:

- kredit portfelining to'g'ri diversifikatsiya qilinmaganligi;
- ajratilgan kreditlar bo'yicha yetarli zaxira yaratilmaganligi;
- garov ta'minoti to'g'ri tahlil qilinmaganligi;
- kredit muddatlari jalb qilingan mablag'lar muddatlariga mos kelmasligi;
- muammoli aktivlar hajmining oshib ketishi.

Yuqorida keltirilgan omillar banklarda kredit portfel riskiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, kredit portfelini boshqarishning asosiy usullaridan biri - bu diversifikatsiya usuli hisoblanib, bankning ba'zi mijozlaridan ko'rgan zararlarni boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan qoplash maqsadida bankning kredit resurslarini kam miqdorda ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlashdir. Banklarda kredit portfelini samarali boshqarishning keyingi usuli esa ajratilgan kreditlar bo'yicha zaxira shakllantirish hisoblanadi, ya'ni banklarda aktivlar sifati bo'yicha besh guruhga ajratilib, ular uchun maxsus zaxira shakllantiradi.

1. Qarz oluvchi moliyaviy holati barqaror bo'lib, u qarzlarini o'z vaqtida to'laydigan bo'lsa, aktivlar sifatida **"standart"** deb tasniflanadi va bu aktivlarning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining bir foizi miqdorida sof foyda hisobidan zaxira shakllantiriladi.

2. Qarzdorning moliyaviy holati barqaror bo'lsada, lekin faoliyatida ba'zi bir salbiy holatlar yuzaga kelsa, aktivlar sifati **"substandart"** deb tasniflanadi va bu aktivlarning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining o'n foizi miqdorida zaxira shakllantiriladi.

3. Agar qarzdorning asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun yetarli bo'lmasa, muddati o'tgan qarzdorlik muddati 90 kundan oshmagan bo'lsa, aktivlar sifati **"qoniqarsiz"** deb tasniflanadi va bu aktivlarning

imrconf.com

qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yigirma besh foizi miqdorida zaxira shakllantiriladi.

4. Agar asosiy qarz va foiz bo'yicha 90 kundan oshgan, lekin 180 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa, aktivlar sifati **"shubhali"** deb tasniflanadi va bu aktivlarning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining ellik foizi miqdorida zaxira shakllantiriladi.

5. Agar asosiy qarz va foiz bo'yicha 180 kundan oshgan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa, aktivlar sifati **"umidsiz"** deb tasniflanadi va bu aktivlarning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizi miqdorida zaxira shakllantiriladi.

Sifati "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" deb tasniflangan aktivlar muammoli aktivlar deyiladi. Markaziy bank talabiga ko'ra tijorat banklarida muammoli aktivlar ulushi jami aktivlarning o'n foizidan ortiq bo'lmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqarmasining 2000-yil 2-martdagi "O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizomiga ko'ra, kredit ajratilish tartibi, kredit siyosatini to'g'ri tartibga solish hamda boshqa qonun hujjatlariga mos ravishda kredit ajratish to'g'risida keltirilgan bo'lib, unda kredit monitoringi, mijozni kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi, skoring qilish jarayoni, biznes-reja tahlili hamda ta'minot tahlili to'g'risida bayon etilgan. Unga ko'ra, ta'minot uchun talab qilinadigan garov ajratiladigan kredit miqdorining 125% dan kam bo'lmasligi lozim. Shuningdek, ta'minot uchun uchinchi shaxs kafilligi, kafolat va sug'urta polisi ham olinishi mumkin. Kafolatni faqatgina 3 ta tashkilot, davlat, bank va sug'urta berishga haqli bo'lib, tijorat banklarida kreditlarida asosan sug'urta tashkiloti beradigan kafolat salmog'i yuqori hisoblanadi.

Keyingisi esa kredit muddati jalb qilingan mablag'lar, ya'ni omonat va depozitlar muddatlariga mos kelmasligi natijasi ham kredit riski yuzaga keladi. Banklar asosan jalb qilingan mablag'lar hisobidan (odatda 80-85%) aktiv

imrconf.com

operatsiyalarni amalga oshiradi. Shu sababli, agar qisqa muddatga mablag' jalb qilib, uni uzoq muddatga kredit uchun ajratsa risk paydo bo'lishi mumkin, ya'ni omonatchilari oldida majburiyatini o'z vaqtida bajara olmasligi oqibatida tavakkalchilik yuzaga keladi va bankning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bunday holatda, kredit portfel riskini minimallashtirish maqsadida xorijiy davlat mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichini chuqur tahlil qiladi. Ushbu ko'rsatkichlarga qoplash koeffitsienti, likvidlilik koeffitsient va muxtoriylik koeffitsienti tahlil qilinadi va toijalarga ajratiladi. Shuningdek, AQSH bank tizimida mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichini aniqlashda **"6 C"** tartibi qo'llanilib, unga ko'ra "Character, Capacity, Capital, Collateral, Conditions, Control" komponentlari mavjud bo'ladi. Har bir komponent bo'yicha mijoz ma'lumotlari tahlil qilinadi va uning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi aniqlanadi. Yana bir mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichini aniqlash usuli - bu "kredit skoringi" hisoblanadi. Bu usul eng keng tarqalgan usul hisoblanib, har bir bank holati, vaziyatiga qarab o'zlari ishlab chiqadi. Ushbu usulda mijozlar ballar berish orqali kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi aniqlanadi. Bu usulda mijozning yoshi, oilaviy holati, bir oylik daromadi, qaramog'idagi odamlar soni, mol-mukini mavjudligi, kredit tarixi va shunga o'xshash ma'lumotlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, bank tizimida eng ko'p tarqalgan risk turlaridan biri bu kredit portfel riski hisoblanib, banklar ushbu risklarni to'gri baholash, maxsus zaxiralar ajratish, diversifikatsiya qilish hamda samarali kredit siyosatini ishlab chiqarish orqali tartibga sola oladi. Bu borada Xalqaro Bazel Qo'mitasining standartlari, aynan kapitalning yetarliligi bo'yicha talablari ham usbu risklarni kamaytirishga xizmat qiladi va bundan ko'plab davlatlar bank tizimida keng qo'llaniladi.

imrconf.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun.
2. "O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizom.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Banklar va bank guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizomi, ro'yxat raqami 3427.
4. Saidov D.A. "Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish". Darslik. – T. "DIADEMA NUR SERVIS" MCHJ nashriyoti, 2025 y.
5. Sh.Z. Abdullayeva, U.O'. Azizov. "Bank risklari". Darslik. - "Iqtisod-Moliya", 2019.

imrconf.com